NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-9]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

UO'K: 327(575.1:510)

XITOY VA O'ZBEKISTON MUNOSABATLARI YANGI DAVRGA, SIFAT JIHATDAN YANGI BOSQICHGA QADAM QO'YMOQDA

Urinboyev X.B.
«Impuls BSR» MChJga qarashli Impuls tibbiyot instituti Namangan filiali, Ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar kafedrasi dotsenti, siyosiy fanlar nomzodi, Namangan, O'zbekiston
ORCID: 0009-0002-9601-6615
E-mail: xoshimjon0603@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining tinchliksevarlik tamoyillari kontekstida O'zbekiston va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasidagi munosabatlarning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Tadqiqot rasmiy hujjatlar, davlat rahbarlarining nutqlari va statistik ma'lumotlarga tayangan holda tarixiy-qiyosiy va tizimli tahlil usullari asosida olib borildi. Ikki davlat munosabatlari 1992-yildan boshlab strategik sheriklik (2012), keng qamrovli strategik sheriklik (2016), yangi davrda keng qamrovli strategik sheriklik (2022) darajalariga izchil ko'tarilgani asoslanadi. O'zaro savdo hajmi 2016-yildagi 4,2 mlrd dollardan 2024-yilda 14 mlrd dollardan ortiq miqdorga yetgani, Xitoy kapitali ishtirokidagi korxonalar soni 2017–2023-yillarda 700 dan 2337 taga ko'paygani ko'rsatildi. Madaniy-gumanitar, ta'lim va turizm sohalaridagi hamkorlik, xususan, o'zaro vizasiz rejim va «Xitoyda O'zbekiston turizmi yili» natijalari yoritiladi. Xulosada hamkorlikning sifat jihatdan yangi bosqichi yuqori texnologiyalar, «yashil» energetika, transport-logistika va inson kapitali sohalariga ko'chayotgani asoslanadi.*

Kalit so'zlar: *tinchliksevarlik, tashqi siyosat, O'zbekiston, Xitoy, strategik sheriklik, «Bir makon, bir yo'l», Shanxay hamkorlik tashkiloti, investitsiya, madaniy-gumanitar hamkorlik, turizm.*

ОТНОШЕНИЯ КИТАЯ И УЗБЕКИСТАНА ВСТУПАЮТ В НОВУЮ ЭПОХУ, НА КАЧЕСТВЕННО НОВЫЙ ЭТАП

Аннотация: *В статье анализируются этапы становления и развития отношений между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой в контексте миролюбивых принципов внешней политики Узбекистана. Исследование проведено на основе официальных документов, выступлений глав государств и статистических данных с применением историко-сравнительного и системного методов анализа. Обосновано, что начиная с 1992 года отношения двух государств последовательно поднимались до уровня стратегического партнёрства (2012), всеобъемлющего стратегического партнёрства (2016) и всеобъемлющего стратегического партнёрства в новую эпоху (2022). Показано, что объём взаимной торговли вырос с 4,2 млрд долларов в 2016 году до более чем 14 млрд долларов в 2024 году, а число предприятий с участием китайского капитала за 2017–2023 годы увеличилось с 700 до 2337. Освещено сотрудничество в культурно-гуманитарной, образовательной и туристической сферах, в частности введение взаимного безвизового режима и итоги «Года туризма Узбекистана в Китае». Сделан вывод о том, что качественно новый этап сотрудничества смещается в сферы высоких технологий, «зелёной» энергетики, транспортной логистики и человеческого капитала.*

Ключевые слова: *миролюбие, внешняя политика, Узбекистан, Китай, стратегическое партнёрство, «Один пояс, один путь», Шанхайская организация сотрудничества, инвестиции, культурно-гуманитарное сотрудничество, туризм.*

CHINA–UZBEKISTAN RELATIONS ARE ENTERING A NEW ERA AND A QUALITATIVELY NEW STAGE

Abstract: *The article analyses the stages of formation and development of relations between the Republic of Uzbekistan and the People's Republic of China in the context of the peace-oriented principles of Uzbekistan's foreign policy. The study is based on official documents, speeches of the heads of state and statistical data, using historical-comparative and systemic methods of analysis. It is substantiated that since 1992 bilateral relations have been consistently raised to the level of strategic partnership (2012), comprehensive strategic partnership (2016) and comprehensive strategic partnership in the new era (2022). It is shown that mutual trade grew from USD 4.2 billion in 2016 to more than USD 14 billion in 2024, while the number of enterprises with Chinese capital increased from 700 to 2,337 in 2017–2023. Cooperation in the cultural-humanitarian, educational and tourism spheres is highlighted, in particular the mutual visa-free regime and the results of the «Year of Uzbekistan Tourism in China». The article concludes that the qualitatively new stage of cooperation is shifting towards high technologies, «green» energy, transport logistics and human capital.*

Keywords: *peacefulness, foreign policy, Uzbekistan, China, strategic partnership, Belt and Road, Shanghai Cooperation Organisation, investment, cultural-humanitarian cooperation, tourism.*

1. KIRISH

Jahonda madaniyatlarning o'zaro yaqinlashuvi va globallashuv tendensiyalarining kuchayishi insoniyatning tinchlik, barqarorlik va hamjihatlikni anglash imkoniyatlarini kengaytirdi. Shu bilan birga, odamlar ongida qo'rquv,

ishonchsizlik va umidsizlik kabi kayfiyatlar hamon dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Bunday sharoitda tinchliksevarlik nafaqat siyosiy maqsad, balki shaxs va jamiyatning ma’naviy xavfsizligini ta’minlovchi axloqiy talab sifatida e’tirof etilmoqda. Davlatlarning barqarorligi, fuqarolarning xotirjamligi va jamiyat farovonligiga tahdid soluvchi omillarning sabablarini o‘rganish ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyotning muhim shartiga aylanmoqda.

Tinchlik va barqarorlik muammosining dolzarbligini zamonaviy xalqaro voqealar ham tasdiqlaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining XVI sammitida ta’kidlaganidek, «Global tinchlik va xavfsizlikka jiddiy tahdid solayotgan Yaqin Sharqdagi Falastin-Isroil urushi barchamizda katta tashvish uyg‘otmoqda. Ming afsuski, bu qonli nizo oqibatida avvalo, tinch aholi vakillari, ayniqsa, ayollar, bolalar va keksalar ko‘plab qurbon bo‘lmoqda. Urushning mintaqa bo‘ylab yoyilib ketish xavfi tobora real tus olmoqda» [9]. Ana shunday sharoitda qo‘shni va yirik davlatlar bilan ishonchga asoslangan, o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston ochiq, pragmatik va konstruktiv tashqi siyosat yuritmoqda. Mamlakat Markaziy Osiyo davlatlari bilan do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini o‘rnatib, mintaqa davlat rahbarlarining maslahat uchrashuvlarini yo‘lga qo‘ydi, chegara va suv resurslari masalalarini hal etish, Afg‘onistondagi tinchlik jarayonini qo‘llab-quvvatlash borasida faol tashabbuslar bilan chiqmoqda. Ichki siyosatda ham chuqur islohotlar amalga oshirildi: xususan, 2021-yilda yalpi ichki mahsulot o‘sish sur’ati 7,4 foizni tashkil etdi, COVID-19 pandemiyasi davrida aholi salomatligini ta’minlash uchun qariyb 8 trln so‘m mablag‘ yo‘naltirildi. Ushbu islohotlar mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini oshirib, tashqi hamkorlar, jumladan, Xitoy Xalq Respublikasi bilan munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqish uchun mustahkam zamin yaratdi.

Xitoy O‘zbekistonning eng yirik savdo hamkorlari va asosiy investorlaridan biri hisoblanadi. Ikki davlat munosabatlari Buyuk ipak yo‘li davridan boshlangan ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lib, bugungi kunda siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsion, madaniy-gumanitar, ta’lim va turizm sohalarini qamrab olmoqda. Biroq bu munosabatlarning bosqichma-bosqich rivojlanishini yaxlit tahlil qiluvchi, statistik ma’lumotlar dinamikasini tizimlashtiruvchi ilmiy ishlar hali yetarli emas. Mazkur holat tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi — O‘zbekiston va Xitoy munosabatlarining tarixiy ildizlari, rivojlanish bosqichlari va hozirgi holatini tahlil qilish hamda hamkorlikning sifat jihatdan yangi bosqichga o‘tishini belgilovchi omillarni aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo‘yildi: (1) ikki xalq munosabatlarining tarixiy ildizlarini yoritish; (2) diplomatik munosabatlarning bosqichlari va huquqiy asoslarini tizimlashtirish; (3) savdo-iqtisodiy va investitsion hamkorlik dinamikasini tahlil qilish; (4) madaniy-gumanitar, ta’lim va turizm sohalaridagi hamkorlik natijalarini baholash; (5) hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlash.

Tadqiqot obyekti — O‘zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar; predmeti esa ushbu munosabatlarning rivojlanish bosqichlari, mexanizmlari va natijalaridir.

2. MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tinchliksevarlik g‘oyasi ko‘plab mutafakkirlar asarlarida markaziy o‘rin egallagan. Xitoy donishmandi Konfutsiy shaxsning ma’naviy xavfsizligini ta’minlash uchun jamiyatda adolatni qaror toptirish zarur degan fikrni ilgari surgan. Fransuz ma’rifatparvari J.-J. Russo «munofiq xislatlardan xoli», tabiiy tinchlik holatida yashagan inson qiyofasini axloqiy kamolot ideali sifatida talqin qilgan [5]. Jadid ma’rifatparvari Abdurauf Fitrat esa «Sharq siyosati» asarida mustamlakachilik oqibatlarini tahlil qilib, «Sharqning taraqqiy yo‘li ko‘mildi. Saodat va tinchlik eshiklari bog‘landi, saodatning eng yuksak tepasiga chiqqan Sharq yo‘qsullikning eng teran chuquriga tushdi» deb yozgan edi [6]. Darhaqiqat, mustamlakachilik, beqarorlik va zo‘ravonlik Markaziy Osiyoni nafaqat iqtisodiy-siyosiy, balki ma’naviy-ma’rifiy jihatdan ham tanazzulga olib keldi. Bu fikrlar tinchlik va barqarorlik har qanday taraqqiyotning asosiy sharti ekanini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston tashqi siyosatining zamonaviy konseptual asoslari Sh.M. Mirziyoyevning «Yangi O‘zbekiston strategiyasi» asarida [4] hamda 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi [1] va «O‘zbekiston – 2030» strategiyasida [2] belgilab berilgan. Ushbu hujjatlarda ochiq, faol va pragmatik tashqi siyosat yuritish, Markaziy Osiyoni barqarorlik va hamkorlik hududiga aylantirish, yetakchi davlatlar bilan strategik sheriklikni chuqurlashtirish ustuvor vazifa sifatida qayd etilgan. Mintaqaviy xavfsizlik sohasidagi hamkorlikning huquqiy asosi esa 2002-yilda qabul qilingan Shanxay hamkorlik tashkiloti Xartiyasida [3] mustahkamlangan.

Xorijiy tadqiqotchilar Markaziy Osiyo va Xitoy munosabatlariga alohida e’tibor qaratgan. A. Kuli mintaqadagi yirik davlatlar raqobatini tahlil qilib, Markaziy Osiyo davlatlari tashqi kuchlar bilan munosabatlarda o‘z «qoidalari»ni belgilashga qodir faol subyektlar ekanini ko‘rsatdi [7]. M. Laryuel va S. Peyruz Xitoyning mintaqadagi iqtisodiy ishtiroki va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini atroflicha o‘rgandilar [8]. Mamlakatimizda esa ikki davlat munosabatlari, asosan, Prezident huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti, «Taraqqiyot strategiyasi» markazi kabi tahliliy tuzilmalar materiallarida yoritilmoqda [11].

Mavjud manbalar tahlili quyidagi bo‘shliqlarni aniqlash imkonini berdi: birinchidan, ikki davlat munosabatlarining tarixiy ildizlari va zamonaviy bosqichlari yagona tahliliy tizimda kam ko‘rib chiqilgan; ikkinchidan, savdo-iqtisodiy va investitsion ko‘rsatkichlar dinamikasi turli manbalarda tarqoq holda berilgan; uchinchidan, so‘nggi yillardagi turizm va ta’lim sohasidagi hamkorlik natijalari ilmiy jihatdan umumlashtirilmagan. Mazkur maqola ana shu bo‘shliqlarni to‘ldirishga qaratilgan.

3. TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tizimli tahlil, hujjatlarning kontent-tahlili va statistik ma’lumotlar dinamikasini tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Tarixiy-qiyosiy usul ikki xalq munosabatlarining tarixiy ildizlarini va diplomatik

munosabatlar bosqichlarini aniqlash uchun, tizimli tahlil — hamkorlik yo‘nalishlarini yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqish uchun, kontent-tahlil — davlat rahbarlarining nutqlari va rasmiy hujjatlar mazmunini o‘rganish uchun qo‘llanildi.

Tadqiqotning manbaviy asosini O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti materiallari, «Dunyo» axborot agentligi xabarlari, «Taraqqiyot strategiyasi» markazi tomonidan o‘tkazilgan xalqaro simpozium materiallari hamda rasmiy statistik ma’lumotlar tashkil etdi [9–14]. Statistik ko‘rsatkichlar ularni e’lon qilgan rasmiy manbada ko‘rsatilgan davr va qiymat bo‘yicha keltirildi; turli manbalarda berilgan ma’lumotlar yillar kesimida taqqoslanib, dinamika sifatida tahlil qilindi.

Tadqiqotning cheklovlari. Tahlil ochiq manbalarda e’lon qilingan ma’lumotlarga asoslangan; ayrim ko‘rsatkichlar (savdo hajmi, investitsiyalar) turli idoralar tomonidan turli metodika bo‘yicha hisoblanishi sababli ular o‘rtasida farq bo‘lishi mumkin. Shu bois maqolada har bir ko‘rsatkichning davri aniq qayd etildi.

4. NATIJALAR VA TAHLIL

4.1. Ikki xalq munosabatlarining tarixiy ildizlari

Xitoy va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi aloqalar qadimdan rivojlanib kelgan. Qadimiy qo‘lyozma manbalar ikki mintaqa o‘rtasida muntazam aloqalar mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Xususan, miloddan avvalgi II asrning ikkinchi yarmida G‘arbiy Xan imperiyasi (miloddan avvalgi 206-yil – milodiy 9-yil) elchisi Chjan Szyan Farg‘onaga kelgani haqida ma’lumotlar saqlangan. Dunxuanda topilgan arxeologik ashyolar bu yerda Farg‘ona, Samarqand, Buxoro va Toshkentdan kelgan savdogarlar yashaganini tasdiqlaydi.

Manbalarda Sun sulolasi davrida (960–1279) Sun hukmdorining Buxoro hukmdoridan yordam so‘ragani va Najmiddin Sufiy boshchiligidagi harbiy otryad yordamga yuborilgani haqidagi rivoyatlar ham uchraydi. Temuriyzoda Shohrux davrida, 1419–1422-yillarda, uning elchilari Pekinda faoliyat yuritgan; elchilikda ishtirok etgan G‘iyosiddin Naqqoshning safar qaydlari bugungi kunda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanmoqda. Ikki xalqning savdo aloqalari jahon sivilizatsiyasiga choy, paxta, ipak, qog‘oz kabi mahsulotlarning tarqalishida muhim rol o‘ynagan. Bu tarixiy tajriba bugungi hamkorlikning madaniy-ma’naviy poydevori bo‘lib xizmat qilmoqda.

4.2. Diplomatik munosabatlarning bosqichlari va huquqiy asoslari

Xitoy Xalq Respublikasi O‘zbekiston mustaqilligini birinchilardan bo‘lib — 1991-yil 27-dekabrda tan oldi, diplomatik munosabatlar esa 1992-yil 2-yanvarda o‘rnatildi. Shundan buyon ikki davlat munosabatlari bir necha marta yangi sifat darajasiga ko‘tarildi. Asosiy bosqichlar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. O‘zbekiston–Xitoy munosabatlarining asosiy bosqichlari

Sana	Voqea	Ahamiyati
27.12.1991	XXR O‘zbekiston mustaqilligini tan oldi	mustaqillikni birinchilardan bo‘lib e’tirof etish
02.01.1992	Diplomatik munosabatlar o‘rnatildi	ikki tomonlama munosabatlarning huquqiy boshlanishi
07.06.2002	Shanxay hamkorlik tashkiloti Xartiyasi imzolandi	mintaqaviy xavfsizlik va hamkorlikning ko‘p tomonlama asosi
06.06.2012	Strategik sheriklik o‘rnatildi	munosabatlarning strategik darajaga chiqishi
22.06.2016	Keng qamrovli strategik sheriklik o‘rnatildi	hamkorlik sohalarining kengayishi
11–13.05.2017	O‘zbekiston Prezidentining Xitoyga davlat tashrifi	yangi siyosiy dinamika, «Bir makon, bir yo‘l» forumida ishtirok
15.09.2022	Yangi davrda keng qamrovli strategik sheriklik	munosabatlarning sifat jihatdan yangi darajasi
23–25.01.2024	O‘zbekiston Prezidentining Xitoyga davlat tashrifi	o‘nlab hujjatlar imzolanishi, hamkorlikning chuqurlashuvi
01.12.2024	O‘zaro vizasiz rejim to‘g‘risidagi bitim imzolandi	fuqarolar uchun 30 kungacha vizasiz tartib

Yuqori darajadagi muloqot munosabatlar rivojining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib qolmoqda. 1991-yildan buyon ikki davlat rahbarlari ishtirokida 21 ta sammit o‘tkazilgan. XXR raislari Szyan Szemin 1996-yilda, Xu Szintao 2004 va 2010-yillarda, Si Szinpin 2013, 2016 va 2022-yillarda O‘zbekistonga tashrif buyurgan. 2017-yil may oyidagi muzokaralarda XXR Raisi Si Szinpin Xitoy va O‘zbekiston munosabatlari yangi davrga, sifat jihatdan yangi bosqichga qadam qo‘yayotganini, bu bosqich yuqori texnologiyalar sohasida keng ko‘lamli hamkorlik boshlangani bilan izohlanishini ta’kidlagan edi [10]. 2025-yil sentabr oyidagi uchrashuvda esa davlat rahbarlari barcha sharoitlarda strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash masalalarini ko‘rib chiqdilar; «Yagona Xitoy» siyosatini qo‘llab-quvvatlash hamda terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi kurashish masalalarida O‘zbekistonning pozitsiyasi o‘zgarmasligi tasdiqlandi [14].

Hamkorlikning huquqiy asosi ham izchil kengaymoqda. 2021-yil holatiga ko‘ra ikki davlat o‘rtasida 220 dan ortiq hujjat imzolangan bo‘lsa, 2022-yilga kelib ularning soni 283 taga yetdi [11]. Imzolangan hujjatlarning tarkibi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval. O‘zbekiston–Xitoy hamkorligining huquqiy asosi (2022-yil holatiga)

Hujjat turi	Soni	Ulushi, %
Davlatlararo va hukumatlararo xalqaro shartnomalar	113	39,9
Idoralararo hujjatlar	82	29,0
Boshqa turdagi hujjatlar	88	31,1
Jami	283	100,0

Muhim hujjatlar qatorida «Strategik sheriklik o‘rnatish to‘g‘risidagi qo‘shma deklaratsiya», «Do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risidagi shartnoma», «O‘zbek-Xitoy hamkorligini yanada kuchaytirish to‘g‘risidagi qo‘shma deklaratsiya», xalqaro avtomobil transporti yo‘li to‘g‘risidagi bitimni alohida qayd etish mumkin. 2021-yil 1-martdan XXR fuqarolari uchun O‘zbekistonga kirgan kundan boshlab 10 kunlik vizasiz tartib joriy etilgan bo‘lsa, 2024-yil 1-dekabrda tashqi ishlar vazirlari B. Saidov va Van I imzolagan hukumatlararo bitim ikki davlat fuqarolarini 30 kungacha muddatga viza talablaridan ozod qildi [12].

4.3. Savdo-iqtisodiy va investitsion hamkorlik

Savdo-iqtisodiy hamkorlik ikki tomonlama munosabatlarning eng jadal rivojlanayotgan yo‘nalishidir. Ikki tomonlama savdo-iqtisodiy bitimga ko‘ra, ikki davlat o‘rtasida savdoda eng ko‘p qulaylik yaratish rejimi o‘rnatilgan. Xitoy so‘nggi yillarda O‘zbekistonning tashqi savdo hamkorlari orasida birinchi o‘rinni egallab kelmoqda. O‘zaro savdo hajmining dinamikasi 1-diagrammada keltirilgan.



1-diagramma. O‘zbekiston–Xitoy tovar ayirboshlash hajmi dinamikasi, mlrd AQSh dollari

Diagrammadan ko‘rinadiki, 2016–2024-yillarda o‘zaro savdo hajmi uch barobardan ziyod o‘sgan. 2016-yil yakunlariga ko‘ra 4,2 mlrd dollarni tashkil etgan savdo aylanmasi 2021-yilda 7,4 mlrd dollarga, 2024-yilda esa 14 mlrd dollardan ortiq miqdorga yetdi; 2025-yil boshidan u yana 23 foizga o‘sdi [14]. Sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini o‘zaro yetkazib berish hisobiga savdo hajmini 20 mlrd dollarga yetkazish vazifasi qo‘yilgan. Xitoy bozorida O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan to‘qimachilik mahsulotlari, plastmassa buyumlar va qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga talab ortib bormoqda.

Investitsion hamkorlik ham sezilarli darajada kengaydi. Asosiy ko‘rsatkichlar 3-jadvalda umumlashtirilgan.

3-jadval. O‘zbekiston–Xitoy investitsion hamkorligining asosiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Davr	Qiymat
O‘zlashtirilgan Xitoy investitsiyalari	2017–2022	10,9 mlrd doll.
O‘zlashtirilgan Xitoy investitsiyalari	2017–2023	14 mlrd doll.
Xitoy banklari kreditlarining umumiy portfeli	2023	7 mlrd doll.dan ortiq
XXR hukumati grantlari (51 ta loyiha)	2008–2022	246,3 mln doll.
2024-yilda ishga tushirilgan loyihalar (64 ta)	2024	10 mlrd doll.dan ortiq
Investitsiya loyihalari portfeli	2025	60 mlrd doll.dan ortiq

Xitoy kapitali ishtirokidagi korxonalar soni ham tez sur’atlarda o‘smoqda (2-diagramma). Agar 2017-yilda bunday korxonalar 700 dan ziyod bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yilda ularning soni 1763 taga (shundan 275 tasi shu yili tashkil etilgan), 2023-yilda esa 2337 taga yetdi [13].



2-diagramma. O‘zbekistonda Xitoy kapitali ishtirokidagi korxonalar soni

Xitoy investorlari ishtirokida mamlakatimizda strategik ahamiyatga ega bir qator obyektlar barpo etildi. Jumladan, Angren – Pop temir yo‘li va Qamchiq dovonidagi tunnel qurilishi Farg‘ona vodiysini respublikaning boshqa hududlari bilan bog‘lovchi muhim transport infratuzilmasini yaratdi. Eksimbank ko‘magida Toshkentda Olimpiya shaharchasi qurib bitkazildi. Mamlakat hududlarida qo‘shma texnoparklar va maxsus industrial zonalar faoliyat yuritmoqda, BYD elektromobillarini ishlab chiqarish kengaytirilib, mahalliylashtirish darajasi oshirilmoqda. «Yashil» energetika, jamoat transportini modernizatsiya qilish va raqamlashtirish, muhim minerallarni chuqur qayta ishlash, kimyo, suv va qishloq xo‘jaligi sohalarida istiqbolli loyihalar ishlab chiqilgan. «Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston» temir yo‘li qurilishining amaliy bosqichi boshlangani esa mintaqaviy transport-logistika imkoniyatlarini tubdan o‘zgartirishi kutilmoqda [14].

O‘zbekiston Xitoyning «Bir makon, bir yo‘l» tashabbusini faol qo‘llab-quvvatlamoqda. Mamlakatning mazkur loyihaga jalb etilishi barqaror iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlash, butun Markaziy Osiyoga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan transport va infratuzilma loyihalarini amalga oshirish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega.

4.4. Madaniy-gumanitar va ta’lim sohasidagi hamkorlik

Madaniy-gumanitar aloqalar ikki xalq o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni mustahkamlovchi muhim omildir. O‘zbekiston yoshlari orasida xitoy tilini o‘rganish, Xitoyda esa o‘zbek tili, tarixi va madaniyatiga qiziqish ortib bormoqda. Xitoyda O‘zbekistonni o‘rganish instituti faoliyat ko‘rsatmoqda, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur haykallari o‘rnatilgan. Ta’lim sohasidagi institutsional asoslar 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval. Ta’lim sohasidagi O‘zbekiston–Xitoy hamkorligining institutsional asoslari

Muassasa yoki loyiha	Joylashuvi	Faoliyat mazmuni
Konfutsiy institutlari	Toshkent, Samarqand	xitoy tili va madaniyatini o‘qitish
Xitoy tili markazi	Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti	xitoy tilini o‘qitish
O‘zbek tili bo‘linmasi	Xitoy Millatlar markaziy universiteti	o‘zbek tilini o‘qitish
«O‘zbek tili va adabiyoti» kafedrasi	Shanxay xorijiy tillar universiteti	o‘zbekshunos mutaxassislar tayyorlash
Shimoli-g‘arbiy qishloq va o‘rmon xo‘jaligi universiteti filiali	O‘zbekiston	agrar sohada kadrlar tayyorlash
Xalqaro matematika markazi	O‘zbekiston	ilmiy-tadqiqot hamkorligi
«Lu Ban ustaxonalari» (rejalashtirilgan)	O‘zbekiston hududlari	energetika, mashinasozlik, sun’iy intellekt, tibbiyot va qishloq xo‘jaligi uchun mutaxassislar tayyorlash

Hozirgi kunda O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida 2 mingdan ziyod talaba xitoy tilini o‘rganmoqda, 5 ta oliygohda xitoy tili birinchi yoki ikkinchi xorijiy til sifatida o‘qitilmoqda. Sian neft universiteti filialini ochish to‘g‘risida bitim imzolangan, Pekin texnologiya instituti filialini ochish rejalashtirilgan. Innovatsion loyihalarni ilgari surish va mutaxassislar tayyorlash maqsadida O‘zbekiston – Xitoy sun’iy intellektni rivojlantirish markazini tashkil etish taklif qilingan [14].

Madaniy almashinuv ham muntazam tus olgan. O‘zbekistonda Xitoy madaniyati kunlari, kino kunlari, badiiy ko‘rgazmalar o‘tkazilmoqda; xitoylik san’atkorlar Samarqandda ikki yilda bir marta o‘tkaziladigan «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivalida muntazam qatnashmoqda. 2021-yil 25-iyunda Xitoyning O‘zbekistondagi elchixonasi va

«Taraqqiyot strategiyasi» markazi hamkorligida «Xitoy va O‘zbekiston taraqqiyotida yangi bosqich» mavzusida xalqaro onlayn simpozium o‘tkazildi; unda ikki mamlakat xalqlari darajasida gumanitar hamkorlikni rivojlantirish, ishbilarmon doiralar o‘rtasida kooperatsiya aloqalarini o‘rnatish muhimligi ta’kidlandi [11].

4.5. Turizm sohasidagi hamkorlik

Turizm so‘nggi yillarda ikki davlat hamkorligining eng tez rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biriga aylandi. 2010-yildan buyon O‘zbekistonga Xitoy fuqarolari guruh bo‘lib sayohat qiladigan turistik mamlakat maqomi berilgan. 2024-yil 4-dekabrda Pekinda «Xitoyda O‘zbekiston turizmi yili»ning rasmiy ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi [12], 2025-yil 1-sentabrda esa Pekinda O‘zbekiston Turizm ofisi ochildi. Turizm yili doirasidagi asosiy natijalar 5-jadvalda umumlashtirilgan.

5-jadval. «Xitoyda O‘zbekiston turizmi yili» doirasidagi asosiy natijalar (2025-yil)

Yo‘nalish	Natija
Xalqaro ko‘rgazmalarda ishtirok	CSITE (Chendu), GITF (Guanchjou), ITE Hong Kong; 100 dan ortiq turizm subyektlari
Targ‘ibot tadbirlari	Xitoyning 20 ta yirik shahrida road-shou, ko‘rgazma va taqdimotlar; 500 dan ortiq biznes uchrashuvlar
Hamkorlik shartnomalari	Xitoy turkompaniyalari bilan 40 dan ziyod shartnoma
Investitsiya loyihalari	16 ta turizm loyihasi, umumiy qiymati 519,5 mln AQSh dollari
Aviaqatnovlar	Air China, China Southern, China Eastern aviakompaniyalarining muntazam reyslari (2025-yil iyuldan)
Sayyohlar oqimi	2024-yilning mos davriga nisbatan 3,7 barobar o‘sish

Turizm sohasidagi hamkorlik endi faqat sayyohlar oqimi bilan cheklanmay, investitsiya, infratuzilma va texnologik almashinuvni qamrab olmoqda. Xitoyning yetakchi onlayn platformalari (Ctrip.com, Qunar.com) va ijtimoiy tarmoqlari (WeChat, Weibo, RedNote) bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilib, xitoylik blogerlar va turkompaniyalar uchun axborot safarlari tashkil etilmoqda. 2025-yil 3-iyulda Samarqandda o‘tkazilgan «Ipak yo‘lidagi muloqot» (WTA Silk Road Dialogue) xalqaro anjumanida «SUAR + O‘zbekiston» yo‘nalishi doirasida sarmoyaviy hamkorlikni chuqurlashtirish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi [13].

4.6. Natijalarning muhokamasi

Olingan natijalar O‘zbekiston–Xitoy munosabatlarida bir necha muhim qonuniyatni ko‘rsatadi. Birinchidan, munosabatlar rivoji bosqichma-bosqich va izchil xarakterga ega: har bir yangi sheriklik darajasi oldingi bosqichda to‘plangan siyosiy ishonch va amaliy hamkorlik natijalariga tayangan. 2012–2022-yillarda munosabatlar maqomi uch marta yangilangani bu jarayonning jadallashganini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, iqtisodiy hamkorlikning tarkibi sifat jihatdan o‘zgarmoqda. Agar dastlabki bosqichda xomashyo savdosi va infratuzilma loyihalari ustunlik qilgan bo‘lsa, bugungi kunda yuqori texnologiyalar, elektromobil ishlab chiqarish, «yashil» energetika, sun’iy intellekt va muhim minerallarni chuqur qayta ishlash kabi yo‘nalishlar oldingi o‘ringa chiqmoqda. Xitoy kapitali ishtirokidagi korxonalar sonining olti yilda qariyb 3,3 barobar ko‘paygani investitsiyalar mahalliy ishlab chiqarishga yo‘naltirilayotganidan dalolat beradi.

Uchinchidan, inson kapitali va xalqlararo muloqot hamkorlikning mustaqil yo‘nalishiga aylandi. Universitet filiallari, «Lu Ban ustaxonalari», Konfutsiy institutlari va o‘zaro vizasiz rejim munosabatlarning davlatlararo darajadan jamiyatlararo darajaga ko‘chayotganini ko‘rsatadi. Bu esa A. Kuli ta’kidlagan Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi hamkorlar bilan munosabatlarda faol subyekt sifatidagi rolini [7] tasdiqlaydi: O‘zbekiston hamkorlik yo‘nalishlarini o‘z milliy manfaatlari va taraqqiyot strategiyasi ustuvorliklaridan kelib chiqib belgilamoqda.

To‘rtinchidan, xavfsizlik sohasidagi hamkorlik Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida ko‘p tomonlama asosda rivojlanmoqda. Tashkilot Xartiyasi nafaqat xavfsizlik, balki savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ta’lim, madaniyat va sog‘liqni saqlash sohalaridagi hamkorlikni ham nazarda tutadi [3]. Terrorizm, ekstremizm, separatizm, giyohvand moddalar va noqonuniy qurol-yarog‘ savdosiga qarshi kurash masalalarida ikki davlat qarashlarining mushtarakligi munosabatlar barqarorligining muhim kafolatidir. Bu holat tinchlik va barqarorlik har qanday taraqqiyotning asosiy sharti ekanligi haqidagi g‘oyani amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

5. XULOSA

O‘tkazilgan tahlil quyidagi xulosalarga olib keladi.

Birinchidan, O‘zbekiston va Xitoy munosabatlari Buyuk ipak yo‘li davridan boshlangan chuqur tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, bu tarixiy tajriba bugungi hamkorlikning madaniy-ma’naviy poydevorini tashkil etadi.

Ikkinchidan, 1992-yilda o‘rnatilgan diplomatik munosabatlar strategik sheriklik (2012), keng qamrovli strategik sheriklik (2016) va yangi davrda keng qamrovli strategik sheriklik (2022) darajalariga izchil ko‘tarildi. Hamkorlikning huquqiy asosini 280 dan ortiq hujjat tashkil etadi.

Uchinchidan, savdo-iqtisodiy va investitsion hamkorlik jadal o‘smoqda: o‘zaro savdo hajmi 2016–2024-yillarda 4,2 mlrd dollardan 14 mlrd dollardan ortiq miqdorga yetdi, Xitoy kapitali ishtirokidagi korxonalar soni 2017–2023-yillarda 700 dan 2337 taga ko‘paydi. Hamkorlik tarkibida yuqori texnologiyalar, «yashil» energetika va transport-logistika loyihalarining ulushi ortib bormoqda.

To‘rtinchidan, madaniy-gumanitar, ta’lim va turizm sohalaridagi hamkorlik munosabatlarning jamiyatlararo darajaga ko‘chishini ta’minlamoqda. O‘zaro vizasiz rejim va «Xitoyda O‘zbekiston turizmi yili» natijasida xitoylik sayyohlar oqimi 3,7 barobar o‘sdi.

Beshinchidan, ikki davlat munosabatlarining sifat jihatdan yangi bosqichi inson kapitalini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalar va mintaqaviy transport koridorlarini shakllantirish bilan tavsiflanadi. Istiqbolda O‘zbekiston uchun Xitoy bilan hamkorlikda mahalliylashtirish darajasini oshirish, eksport tarkibini diversifikatsiya qilish va qo‘shma ta’lim dasturlari orqali yuqori malakali kadrlar tayyorlash ustuvor vazifa bo‘lib qoladi.

MUALLIFLAR BAYONOTLARI

Mualliflar hissasi. Maqola yakka muallif tomonidan tayyorlangan. Muallif tadqiqot konsepsiyasini ishlab chiqish, manbalarni to‘plash va tahlil qilish, natijalarni talqin etish hamda qo‘lyozmani yozish va yakuniy tahrir qilish bosqichlarining barchasini mustaqil amalga oshirgan.

Manfaatlar to‘qnashuvi. Muallif manfaatlar to‘qnashuvi mavjud emasligini ma’lum qiladi.

Moliyalashtirish. Tadqiqot hech qanday tashqi moliyalashtirish manbaisiz, muallifning shaxsiy tashabbusi asosida amalga oshirilgan.

Ma’lumotlarning ochiqligi. Tadqiqotda foydalanilgan barcha ma’lumotlar ochiq rasmiy manbalardan olingan va adabiyotlar ro‘yxatida ko‘rsatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son «O‘zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz

3. Shanxay hamkorlik tashkiloti Xartiyasi. – Sankt-Peterburg, 2002-yil 7-iyun.

4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

5. Руссо Ж.-Ж. Рассуждение о происхождении и основаниях неравенства между людьми // Трактаты. – М.: Наука, 1969.

6. Fitrat A. Sharq siyosati. – Toshkent, 1919.

7. Cooley A. Great Games, Local Rules: The New Great Power Contest in Central Asia. – Oxford: Oxford University Press, 2012.

8. Laruelle M., Peyrouse S. The Chinese Question in Central Asia: Domestic Order, Social Change and the Chinese Factor. – London: Hurst, 2012.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining XVI sammitidagi nutqi. 09.11.2023 // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. – URL: https://president.uz

10. O‘zbekiston va Xitoyning siyosiy, savdo va madaniy munosabatlari. 12.05.2017 [Elektron resurs].

11. O‘zbekiston–Xitoy: o‘zaro manfaatlarga asoslangan hamkorlik rishtalari mustahkamlanib bormoqda // «Taraqqiyot strategiyasi» markazi. 30.06.2021 [Elektron resurs].

12. Xitoyda O‘zbekiston turizm yiliga start berildi // «Dunyo» axborot agentligi. 04.12.2024 [Elektron resurs].

13. «Xitoyda O‘zbekiston turizmi yili» yakunlari sarhisob qilindi. 25.12.2025 [Elektron resurs].

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining XXR Raisi Si Szinpin bilan uchrashuvi. 2025-yil sentabr // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. – URL: https://president.uz

REFERENCES

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-60 of 28 January 2022 «On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022–2026». National Database of Legislation. Available at: https://lex.uz (In Uzbek)

2. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-158 of 11 September 2023 «On the Strategy ’Uzbekistan – 2030’». National Database of Legislation. Available at: https://lex.uz (In Uzbek)

3. Charter of the Shanghai Cooperation Organisation. Saint Petersburg, 7 June 2002.

4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi [The Strategy of New Uzbekistan]. Tashkent, O‘zbekiston Publ., 2021. (In Uzbek)

5. Rousseau J.-J. Rassuzhdenie o proiskhozhdenii i osnovaniyakh neravenstva mezhdu lyud’mi [Discourse on the Origin and Basis of Inequality among Men]. In: Traktaty [Treatises]. Moscow, Nauka Publ., 1969. (In Russian)

6. Fitrat A. Sharq siyosati [Policy of the East]. Tashkent, 1919. (In Uzbek)

7. Cooley A. Great Games, Local Rules: The New Great Power Contest in Central Asia. Oxford, Oxford University Press, 2012.

8. Laruelle M., Peyrouse S. The Chinese Question in Central Asia: Domestic Order, Social Change and the Chinese Factor. London, Hurst, 2012.

9. Speech of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the 16th Summit of the Economic Cooperation Organization. 9 November 2023. Available at: https://president.uz (In Uzbek)

10. Political, trade and cultural relations of Uzbekistan and China. 12 May 2017. (In Uzbek)

11. Uzbekistan–China: ties of cooperation based on mutual interests are strengthening. Development Strategy Centre, 30 June 2021. (In Uzbek)

12. The Year of Uzbekistan Tourism launched in China. Dunyo News Agency, 4 December 2024. (In Uzbek)

13. Results of the «Year of Uzbekistan Tourism in China» summed up. 25 December 2025. (In Uzbek)

14. Meeting of the President of the Republic of Uzbekistan with PRC Chairman Xi Jinping. September 2025. Available at: https://president.uz (In Uzbek)